

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10844587>

IQTISODIYOTDA QO‘LLANILADIGAN EXCEL DASTURIDA FOYDALANILADIGAN AMALLAR

Malikov Mirjalol Abdulla o‘g‘li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

To‘ychiboyev Jo‘rabek

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda katta ahamiyat kasb etib kelayotgan dasturlardan biri, ya'ni Excel dasturining iqtisodiy masalalarni yechishda foydalanish haqida yoritib o'tilgan. Shuningdek, bu dasturda yechiladigan turli xil masalalar va ularni yechadigan formulalar haqida ham so'z brogan.

***Kalit so'zlar:** Excel, Excel dasturining rivojlanish tarixi, bu dasturda ishlatiladigan formulalar va ularga doir masalalar.*

ABSTRACT

In this article, one of the programs that is gaining great importance today, that is, the use of the Excel program in solving economic problems, is highlighted. He also talked about various issues and formulas to solve them in this program.

***Keywords:** Excel, the history of the development of the Excel program, the formulas used in this program and issues related to them.*

Ma'lumki, turli xil iqtisodiy masalalarni tez yechish uchun insondan ko'ra inson yaratgan turli dasturlarning o'rni beqiyosdir. Elektron jadvallar hayotning har xil sohasida uchraydigan, avvalo hisoblash va iqtisodiy masalalarni echishda, jumladan, berilganlarni tez o'zgartirib turuvchi masalalarni tezkor ravishda qayta ishlab chiqishda, masalan, bank hujjatlari bilan ishlash kabi keng ko'lamli masalalarni yechishda qo'llaniladigan o'ta quvvatli vosita hisoblanadi. Bu dasturlar shu kabi masalalarni, avvalo aniq va xatosiz undan tashqari zudlik bilan yecha olish qobiliyatiga egadir.

Shu kabi amallarni qila oladigan dasturlardan biri bu Excel dasturi hisoblanadi. Microsoft Excel va bazida esa Microsoft Office Excel deb ham ataladigan bu dastur Microsoft korporatsiyasi tomonidan Microsoft Windows Windows NT va Mac OS, bunga qo'shimcha tarzda Android, IOS, Windows Phone kabilar uchun yaratilgan elektron jadvallar bilan ishlash bo'yicha dastur hisoblanadi. Bu dastur iqtisodiy-statistikaga doir hisob-kitoblarni va grafik vositalar imkoniyatlarini taqdim qiloladigan dasturdir. Microsoft Excel Microsoft Office'ning tarkibiy qismi hisoblanadi va bugungi kunda bu Excel dasturi dunyodagi eng mashxur ilovalar qatoridan hisoblanadi.

Excel dasturining rivojlanish tarixi bo'yicha ma'lumotlarga kelsak, birinchi bor 1979-yil Microsoft firmasi tomonidan Excel dasturi taqdim etildi, va u hozir ham o'z sinfida eng quvvatli dastur safiga kiradi. Shubha yo'qki, Excel eng ommabop dasturlardan biridir. Bu dastur ixtiyoriy axborotni (matnlar, sonlar, sana va hokazolarni) qayta ishlab chiqish va saqlash imkonini beribgina qolmasdan, balki qilgan ishingiz natijasini bezash, ko'rgazmaliroq ko'rsatish va chop etish imkoniyatini beradi. Bunda siz WinWord dasturidagi tahrirlash vositalaridan foydalanishingiz ham mumkin. Dastlab Excelning ommaviy imkoniyatlarini o'zlashtirish qiyin emas, ammo dasturning murakkabligi va imkoniyatlarining juda kengligi sababli ular bilan tanishish uzoq davom etishi mumkin, binobarin, aynan ish jarayonida uning yangi-yangi imkoniyatlarini ko'rish mumkin. 1993-yilda ilk marotaba Microsoft Office'ga birlashtirilish munosabati bilan Microsoft Word va Microsoft PowerPoint Excel'ga

monand grafik interfeysga ega bo‘lishdi. 1993-yildan boshlab Excel tarkibiga Visula Basic’ga asoslangan Excel masalalarini avtomatlashtirish imkonini beruvchi dasturlar uchun Visual Basic dasturlash tili kiritiladi.

Excel dasturida eng ko‘p qo‘llaniladigan formulalardan biri bu qo‘shish formulasidir. Qo‘shish formulasi “=CYMM(_;_)” kabi ifodalanadi:

№	F.I.SH	Oylik maosh	Mukofot puli	Jami
1	S.A.Sobirov	5 620 000	500 000	6 120 000
2	R.T.O‘tkirov	6 431 500	800 000	7 231 000
3	K.J.Sirojov	4 630 000	470 000	5 100 000

=CYMM(_;_)

Keyingi formula ko‘paytirish formulasidir: “=ПРОИЗВЕД(_;_)

№	Meva nomi	Meva narxi	Mevaning soni	Jami
1	Olma	6 500	45	292 500
2	Anor	25 000	35	875 000
3	Banan	31 000	60	1 860 000

=ПРОИЗВЕД(_;_)

Keyingi formula, sonlar ichidan eng kattasini topishda ishlatiladi. Bu formula ishlatilayotganda yanvardan to iyungacha belgilanadi: =МАКС(_;_)

№	Meva	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	Iyun	Eng katta narx
1	Olma	6 500	7 000	7 200	5 000	6 800	7 200

2	Anor	16 500	18 500	19 000	20 000	17 400	20 000
3	Banan	26 800	26 400	27 310	30 100	29 600	30 100

=МАКС

Keyingi formula, sonlar ichidan eng kichigini topishda ishlatiladi. Bu formula ishlatilayotganda yanvardan to iyungacha belgilanadi: =МИН(;;_)

№	Meva	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	Iyun	Eng katta narx
1	Olma	6 500	7 000	7 200	5 000	6 800	5 000
2	Anor	16 500	18 500	19 000	20 000	17 400	16 500
3	Banan	26 800	26 400	27 310	30 100	29 600	26 400

=МИН

Keyingi formula, berilgan sonlarning o'rtacha arifmetigini topadi va bunda yanvardan to iyungacha belgilash orqali topiladi: =СРЗНАЧ(;;_)

№	Meva	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	Iyun	O'rtacha narx
1	Olma	6 500	7 000	7 200	5 000	6 800	6 500
2	Anor	16 500	18 500	19 000	20 000	17 400	18 280
3	Banan	26 800	26 400	27 310	30 100	29 600	28 042

=СРЗНАЧ

Xulosa qilib aytganda, Excel dasturi iqtisodiy masalalarni tezda yechishda, bankda, korxonalarda va albatda buxgalteriya kasbi uchun ajralmas dastur hisoblanadi. Bu dastur yordamida ko'plab amallarni bajarishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1) R.X. Alimov, B.Y. Xodiyev, K. Alimov va boshqalar. S.S. G'ulomovning umumiy tahriri ostida. Milliy iqtisodda axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma T: <Sharq>, 2004. – 320-bet

2) Информатика. Под редакцией проф. Н.В. Макаровой. - М: 1997

3) Ganiyev S.K, Karimov M.M, Tashev K.A. Axborot xavfsizligi, Axborot-kommunikatsion tizimlar xavfsizligi. O'quv qo'llanma T.-Aloqachi, 2008 – 382-bet

4) Akbarov D.Y. Axborot xavfsizligini ta'minlashning kriptografik usullari va ularning qo'llanishlari. "O'zbekiston markasi" nashriyoti. Toshkent – 2009 yil, -398 bet.

5) В. Пассиков. Защита компьютерной информации. – М: Наука, 2001.